

## SAMARQAND TARIXINING MANBALARDAGI TASNIFI (QADIMGI DAVRDAN XIX ASR RUS BOSQINIGA QADAR)

*Usmonov Romozon va Usmonova Marjona  
Axrorova Madina Rahmatovna  
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Tel: +998932360840*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yurtimizning eng qadimiy shaharlardan bo‘lmish Samarqandning necha asrlardan biri o‘zining ko‘hna tarovatini yo‘qotmasdan o‘zidagi bir necha me‘moriy obidalarni saqlab kelayotganligi haqida fikrlar yuritilgan. Bundan tashqari shaharda turli davrlarda o‘z hukmronligini o‘rnatgan sulolalar davrida qay darajada bo‘lgani haqida ham ba‘zi mulohazalar keltirilgan. Ushbu maqola o‘sha paytda mavjud bo‘lgan adabiyotlar, tarixiy qo‘lyozmalar orqali yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Samarqand, sayqali ro‘yi zamin, memoriy obidalar, Amir temur, savdo-sotiq, ijtimoiy munosabatlar.

Tarixdan ma‘lumki, Vatanimiz - O‘zbekiston qadim davrlardan Sharq va G‘arbni bog‘lab turuvchi savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan. Millatlararo munosabatlarda, savdo-ijtimoiy aloqalarda Turkiston shaharlari muhim rol o‘ynagan va hozir ham ushbu an‘ana davom etib kelmoqda. O‘rta Osiyoning mashhur shaharlardan biri Samarqand o‘zining qadimligi hamda obro‘si bilan mintaqaning boshqa shaharlaridan ajralib turadi. Shuning uchun bekorga manbalarda “Samarqand - sayqali ro‘yi zamin” deb atalmagan. Bugungi Samarqandning hammamiz bilamiz. Xo‘sh, Samarqandning tarixi qanday bo‘lgan? U yerda odamlar qanday yashashgan? Uning tabiati qanday bo‘lgan? Quyida shu savollarga javob topishga harakat qilamiz...

Samarqand shahriga asos solinishi mil.avv. I mingyillikka (VIII-VII asrlar) borib taqaladi. Afsonalarga ko‘ra, unga Afrosiyob degan tarixiy shaxs asos solgan. Uni Mahmud Qoshg‘ariy Alp Er To‘nga bilan bir shaxs qilib ko‘rsatgan [1,610-611 b]. Shahar maydoni 120 gektarni tashkil qilgan.

Samarqand nomining kelib chiqishi bo‘yicha bir qancha versiyalar bor. Masalan, Abu Tohirxo‘ja “Samariya”sida [2,16 b] quyidagilarni keltiradi. Unga ko‘ra, Samar degan kishi quduq qaziydi va aholi shu quduq atrofida joylashib yashay boshlaydi. Dastlab shahar “Samarkent” - “Samar shahri” arablar bosqinidan kiyin esa “Samarqand”deb atala boslangan. Boshqa toponimik versiyalar ham shahar toponimining Samar ismli kishi nomidan kelib chiqishini tasdiqlaydi. Yunon-makedon bosqini davrida esa shahar “Maroqand”deb atalgan...

Nima bo‘lganda ham, Samarqand, yuqorida takidlanganidek, o‘lkaning boshqa shaharlari kabi savdo chorrahasida joylashgan. Jumladan, X asrda haqida hikoya

qiluvchi manbada Samarqandga quyidagicha tarif beriladi: "Katta obod shahar. Noz-ne'matlari farovon va butunjahon savdogarlari kelib-ketadigan joy... Buxoro (Zarafshon) daryosi shahar yaqinidan oqib o'tadi" [3,12-13 b]. Keyinchalik, XIII asr boshlarida mo'g'ul hujumi natijasida shahar vayron etilib, talanadi, shahar qisman o'zining ahamiyatini yuqotadi. Ushbu jarayon Amir Temur va temuriylarning hokimiyat tepasiga kelguniga qadar davom etadi. Amir Temur va temuriylar davrida shahar misli ko'rilmagan darajada o'sadi. Buni Ispan elchisi Klavixo(XV asr), Bobur Mirzo (1483-1530) hamda boshqa manbalarda yozilgan ta'riflar bilan isbotlash mumkin.

Bobur Mirzo o'zining "Boburnoma"sida Samarqand juda ajoyib, go'zal qilib ta'riflaydi. Jumladan, u shahar haqida shunday degan edi: "Yer yuzining aholi yashaydigan qismida Samarqandcha latif shahar kamroqdi... Ayniqsa, uzumi va olmasi mashhur. Bu shaharning bir xususiyati borki, bunaqasi kamdan kam shaharda bo'ladi, ya'ni har hunarmandning alohida bozori bor.. yaxshi novvoylik va oshpazliklari bor..."[4,107-108 b]

1404-yilda Samarqanda bo'lgan ispan elchisi Rui Gonsalez de Klavixo ham Samarqandga bergan ta'riflarida ajoyib ta'riflar keltiradi."...Shahargacha tekislik va yo'llarda ko'plab bog'lar, bozorlar, uylar joylashgan ekan" [5,115 b].

Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar davri manbalarining ko'pchiligi shaharning obod bo'lganligini tasdiqlaydi. O'sha davr haqida Shayboniy Sultonlaridan biri Ko'chkunchixon (1512-1929) Samarqandni ko'rib qoyil qoladi." O'zi o'tirgan qasr tomi ustiga chiqib, yon-atrofga nazar tashlaydi. Juda ko'p uy va koshonalarni ko'rib, hayron qoladi va vaziriga qarab shunday deydi: "Agar bu ko'rinayotgan barcha uy va ayvonlar bizga qarashli bo'lsa, har uydan bitta non va bir tovoq osh chiqarib yuborilsa, qo'shin haqida qayg'urib o'tirmasdek" [6,115 b]. Shayboniy hurmdorning shahar haqidagi ushbu ta'rifi shahar darajasini ko'rsatishga yetsa kerak...

Faqat XVIII asr ortalarida Buxoro xonligida hukmdor sulola Ashtarxoniylar vakillari ortasida toj-u taxt uchun kurash kuchayib ketadi. Yashnab turgan joylar qip-qizil sahroga aylanadi. Odamlar xavfsizroq yurtlarga qocha boshladi. Boy va ravnaq tumanlar tamomila hech narsasiz qoldirildi [8,351b].

Aynan shu vaqtdan boshlab Samarqand butunlay xarob holga kelib qoldi. Buni biz Buxoro amiri Shohmurod (1785-1800) ning Samarqandga tashrifi aks etgan lavhalardan ko'rishimiz mumkin. U talabalik yillarida Samarqandga tashrif buyuradi va shahar xarobligidan ranjiydi. U Samarqandga mamlakatning turli shaharlaridan aholini ko'chirtirib keltiradi. Shohmurod va keyingi amirlar davrida shahar gullab yashnaydi... XIX asr o'rtalarida boshlab podsho Rossiyasi O'rta Osiyo hududlarini ochiqchasiga bosib ola boshladi. 1868-yilgi shartnomaga ko'ra shahar Rossiya tassarufiga o'tadi. Shahar haqida sayyoh, diplomat Skayler juda ajoyib yozadi. Uni ko'rib lol qolganini yashirmaydi. Rossiya qo'l ostidagi Samarqand hayotini tasvirlab,

amerikalik diplomat Yujin Skayler (1840-1890) shunday yozadi: “Yevropada Oрта Osiyoning hech bir joyi Samarqand nomidek lol qoldiriladigan darajada emas. Romantika ogushiga qoplangan, oʻziga xos davrlarni boshidan kechirgan va oʻzining ulugʻvorlik anʼanalarini aql bovar qilmaydigan darajada sirli saqlab kelayotgan Samarqand uzoq vaqt mobaynida dunyo ahlining qiziqishini uygʻotib tepalikning (Choʻponota-J.J) asosiy qismini ortda qoldirib, yoʻlning eng yuqori nuqtasiga yetgach, qarshimizda loydan suvalgan tomlar, tepasiga toj kabi qoʻndirilgan ulkan moviy gumbazlar va baland mineralarni koʻrib, mashhur Samarqandga yetib kelganimizni angladik... Samarqand bozori Toshkent va Xoʻjanddagi bozorlarga qaraganda uncha yirik boʻlmasa-da, Samarqandning hozirgi 30 000 aholisi uchun yetarlicha katta sanaladi... shaharda qalandarlar, loʻlilar, yahudiylar yurishadi.. Shaharda hayot qizgʻin” [9,171-207b]...

Sayqali roʻyi zamin – Samarqand oʻlkamizning eng qadimgi shaharlaridan. Buyuk shaharlar ichida buyuklaridan bir shahar. U haqida yozilgan tarixlar, manbalar, kitoblar shaharning azim hayotini bizga hikoya qilib beradi. Biz ushbu yozgan muxtasar bitiklarimizda shaharning tarixiy qiyofasini, uning shaklini tasvirlashga baholi qudrat harakat qildek. Ushbu qadim 2700 yillik tarixni bir kichik maqolaga sigʻdirish imkonsz. Bu haqda alohida kitoblar yozish kerak. Hali hanuz oʻrganilmagan tarixlarni oʻrganish kerak.

Xulosa oʻrnida taʼkidlash kerakki, Samarqand oʻzining mavjud boʻlgan ming yillar davomida ham bugungi kunda hali-hanuz koʻhna tarovatini yoʻqotganicha yuq. Hududimizdagi koʻhna meʼmoriy obidalar dunyoning yetti moʻjizalari hisoblanib kelayotgan Misr piramadalari, Bobil va yana bir qancha koʻhna qadamjolar bilan bellasha oladi, deb ayta olamiz. Bugungi kunda turizm salohiyatini yanada rivojlantirish jarayonida Samarqand oʻzining ulkan darajada hissasini qoʻshib kelmoqda. Bu albatta quvonarli holdir.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Ahmadali Asqarov. Oʻzbek xalqining kelib chiqishi tarixi. 2019
2. Abu Tohirxoʻja. Samariya. 1991.
3. Hudud ul-olam. 2007.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. 2008
5. Klavixo. Amir Temur Ispaniya elchilari nigohida. 2019
6. Akbar Zamonov. Oʻrta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim nomaʼlum sahifalari.
7. Poyon Ravshanov. Malika Kenagas oyim Oychuchuk yoxud Shahrizabz va Qoʻqon shohona nasab qissasi. 2018.
8. Yujin Skayler. Turkiston tarixi. 2019.